

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

131- guruhi talabasi Qo'chqorov Ruslan Saparbaevichning

5111600 "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va xuquq ta'limi" yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: HUQUQIY ONG, HUQUQIY MADANIYAT,  
ULARNING MOHIYATI VA INSON MA'NAVIYATIDAGI  
O'RNI"**

Ilmiy rahbar:

katta.o`qit. I.G` Abdullaeva

## M U N D A R I J A

|  |              |
|--|--------------|
| <b>KIRISH.....</b>   | <b>3-7</b>   |
| <b>I BOB. DEMOKRATIK DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>   | <b>8-37</b>  |
| 1.1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasi, uning mohiyati va o‘ziga xos tomonlari.....   | 8-18         |
| 1.2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ilmiy – nazariy asoslarining yoritilishi.....  | 19-29        |
| 1.3. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish asoslari..... | 30-37        |
| <b>II BOB. MA’NAVİY YUKSALISH JARAYONIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLARI... 38-60</b>   |              |
| 2.1. YOshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy targ‘ibotning ahamiyati.....  | 38-48        |
| 2.2. Ma’naviy, axloqiy bilimlar berish asosida yoshlarni tarbiyalashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish yo‘llari.....   | 49-60        |
| <b>XULOSA.....</b>   | <b>61-63</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>  | <b>64-71</b> |

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** Jamiyatda aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasining yuksakligi –demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan ushbu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. SHu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqrur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, demokratik davlatni vujudga keltirishning ilk va asosiy shartlaridan biri jamiyat a’zolarida zarur darajadagi ongi va madaniyatni shakllantirishdir. Jamiyat iqtisodiy, siyosiy hayotining tub islohot etilishi fuqarolarimizni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni yaratib bermoqda, insonlarning haq-huquqlarini kafolotlamoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov huquqiy ong va huquqiy madaniyat mavzusiga to‘xtalar ekan shunday deydilar: “Har bir kishi o‘z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish lozim”<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқтол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, – Б.322  
<sup>2</sup> И.А.Каримов. “Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда”.-Т:Ўзбекистон.1999 й.31-с

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish masalasi belgilab qo‘yilgan<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish zarurati mavjudligini qayd etish joiz. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilinganidan keyin tadqiqotchilar o‘rtasida huquqiy madaniyat mavzusini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Hatto uni maxsus fan darajasida o‘rganishga qaratilgan darsliklar ham paydo bo‘ldi. Biroq, huquqiy madaniyatning ilmiy–metodologik, gnoseologik, antologik, va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa uning fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar bilan bog‘liq xususiyatlarini aniqlash yangi tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi.

Bugungi talaba yoshlar ertaga jamiyatning u yoki bu sohasida etakchi mutaxassislarga, rahbar xodimlarga aylanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi demokratik o‘zgarishlar taqdiri ularga, huquqiy ongi va madaniyati, e’tiqodi va amal qiladigan huquqiy, ahloqiy normalariga bevosita bog‘liqdir.

Aynan shuning uchun ham talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish orqali ularni fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayonlariga kengroq jalb etish jarayonlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish va tahlil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. SHu sababli, mamlakatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda huquqiy davlatni barpo etishda ularning beqiyos o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan keng tadqiq etish bitiruv malakaviy ishi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Халқ сўзи. 8 феврал 2017 йил.

## **Bitiruv malakaviy ishining ilmiy o‘rganilganlik darajasi:**

Ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarda ushbu sohada qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu izlanishlarning asosini huquqiy davlat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya va huquqiy targ‘ibot kabi jamiyat huquqiy tizimining muhim tarkibiy elementlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar tashkil etadi.

Huquqiy davlat, huquqiy ong va huquqiy madaniyatga oid masalalarning nazariy-huquqiy jihatlari mamlakatimizning SH.Urazaev, A.A.Azizzodjaev, E.M.Abzalov, Z.M.Islomov, I.V.Kudryavtsev, X.T.Mamatov, O.T.Nasiriddinova, A.X.Saidov, N.Saburov, YO.S.Sadikova, X.T.Odilqoriev, U.Tadjixanov, R.E.Turdiboeva, B.R.To‘raev, E.H.Halilov, S. A.Xodjaeva, A.U.Xamraev, SH.U.YAkubov kabi huquqshunos olimlari ilmiy izlanishlarida o‘rganilgan.

Hozirgi davrda shaxs bilan davlat o‘rtasidagi aloqalarning huquqiy xususiyati, huquqiy tarbiya va targ‘ibot tizimi hamda shaxs huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga oid masalalar N.N.Voplenko, A.N.Golovistikova, YU.A.Dmitriev, L.A.Ershova, R.I.Xachaturov, V.S.Nersesyants kabi huquqshunos olimlar va siyosatshunoslardan tadqiq etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** “Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ularning mohiyati va inson ma’naviyatidagi o‘rni” mavzusini o‘qitishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish, mavzu yuzasidan o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha xulosa, taklif va tavsiyalar shlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishi maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:**

- jamiyatimizda ma’naviy yangilanish, demokratik o‘zgarishlar sharoitida fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda yuqori madaniyatni tarbiyalash zarurligini ochib berish;
- O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida huquqiy ong, huquqiy madaniyat va ma’naviyatning ilmiy-nazariy asoslanganligini o‘rganish;

- yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyati tushunchasining mohiyatini va o‘ziga xos tomonlarini aniqlash;
- huquqiy ong va huquqiy madaniyatga yondashishining o‘ziga xosligini aniqlash va unda tinchlik madaniyatining tutgan o‘rmini qo‘rsatish;
- yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning siyosiy va ahloqiy madaniyat bilan bog‘liqligini nazariy jihatdan asoslab berish;
- tarbiyaga kompleks yondoshishning mohiyatini ko‘rib chiqish, uning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash;
- tartibga solishning yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish sohasiga maqbul keluvchi va O‘zbekistonning hozirgi davri sharoitlariga javob beruvchi, bu munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan aniq amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;
- yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda tarbiya berishning shakllari va tizimini tadqiq etish;
- yoshlarga tarbiya berishda oila va jamoatchilikning rolini aniqlash;
- yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning amaliy va uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyektini** “Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ularning mohiyati va inson ma’naviyatidagi o‘rni” mavzusining ob’ektini biz o‘rganayotgan ijtimoiy munosabat tashkil etadi, ya’ni yoshlarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va ma’naviyatni shakllantirish, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, yoshlarda ahloqiy, siyosiy va madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyati tushunchasi, yoshlarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va ma’naviyatning uzviy aloqadorligi, tarbiya berishning samaradorligi tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmetini** “Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ularning mohiyati va inson ma’naviyatidagi o‘rni” mavzusi doirasidagi nazariy masalalar, o‘quv uslubiy hujjatlar, ilmiy va o‘quv adabiyotlari tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, izlanishlar jarayonida

jamlangan tahliliy, axborot va boshqa materiallar fuqarolik jamiyati hamda unga mos keladigan huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mohiyati va tabiatini anglab etishda talaba va yoshlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Amalga oshirilgan ilmiy tahlil yakunlari mazkur muammolar bo‘yicha kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar uchun muayyan darajada nazariy zamin vazifasini o‘taydi. SHuningdek, bitiruv malakaviy ishi natijalaridan “Davlat va huquq nazariyasi” fanining “Huquqiy ong va huquqiy madaniyat” mavzusi bo‘yicha o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va ma’ruza matnlari tayyorlashda hamda ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda foydalanish mumkin.

**Mavzuning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa, taklif va tavsiyalardan iborat holda yoritib berilgan. Bitiruv loyiha ishida 57 ta manbadan foydalanilgan. Ishning hajmi 65 betni tashkil etadi.

# **I BOB. DEMOKRATIK DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK**

## **JAMIYATIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI**

### **SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

#### **1.1 Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasi, uning moxiyati va o‘ziga xos tomonlari**

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni masalalarini tadqiq etish eng avvalo, ushbu kategoriyalarning tushunchasi, ularning tuzilishi va shakllanishi jarayoniga oid ilmiy fikrlar va yondashuvlarni tahlil etish va ularni umumlashtirishni taqozo etadi.

Aytish lozimki, huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari haqida tegishli yuridik adabiyotlarda ancha batafsil ma’lumotlarni uchratish mumkin. Bu holda, ushbu masalalar yuzasidan fikr yuritishga ehtiyoj nimada? – degan savol ko‘ndalang bo‘lishi mumkin. Gap shundaki, keyingi yillarda, aniqrog‘i eski tuzum barham topganidan keyin ilmiy va o‘quv adabiyotlarida jamiyatda huquqiy ong va madaniyat inqirozi haqida fikrlar yuritilmoqda. Bunday holatning ob’ektiv va sub’ektiv tusdagi sabablari bor, albatta.

Bir tuzumdan o‘tib, yangi demokratik davlat barpo etish jarayoni benihoya murakkab ekanligi hamma boxabar bo‘lgan holat. Murakkab o‘tish davrida insonlar ruhiyatida, ongida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lib, unda eski qadriyatlardan voz kechish va yangilarini qabul qilish jarayoni yuz beradi va u og‘riqli, o‘tkir palladir. Taniqli huquqshunos olim V.S.Nersesyants ta’kidlaganidek, bu davrda, bir tomondan, odamlarda tezgina huquqiy ijtimoiy davlat qurish, insonlarni byurokratlashgan amaldorlarning hamda jinoiy tuzilmalarning o‘zboshimchaligi va qonunni mensimasligidan himoya qila oladigan chinakam huquqiy tizimni yaratish imkoniyatiga nisbatan bo‘lgan ishonch kamaya bormoqda.

Huquqiy ong inqirozi jamiyatdagi mavjud munosabatlar bilan Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan normalar o‘rtasidagi farq, huquqiy sohadagi

ahvol, davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas’uliyatining etishmasligi kabi salbiy holatlar bilan tavsiflanadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. SHu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarga barcha darajada rioxalari etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ruyobga chiqadi”<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, huquqiy ong tushunchasiga oid manbalar va fikrlar ko‘pligiga qaramasdan, bu masalaga yondoshuvlarda muayyan noaniqliklar, turli fikrlar mavjudligi va ba’zan esa ularning bir-biriga zidligi holatini kuzatish mumkin SHu bois, biz o‘z bitiruv loyiha ishimiz doirasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari, ularning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha huquq nazariyasida aytilgan fikrlarni tanqidiy bir nazardan o‘tkazib, ularda umumiylilik va o‘zgacha yondoshuvlarni aniqlashga harakat qilamiz.

Bizningcha, huquqiy ong haqida mushohada etishdan oldin, dastlab ijtimoiy ong haqida fikr yuritishimiz kerak bo‘ladi. Zero, huquqiy ong - umumiy ijtimoiy ongning bir tarkibiy qismi, degan tezis hech kimda e’tiroz uyg‘otmasa kerak. Ijtimoiy ongning o‘zi nima? “Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati uning ongida yuz beradi. Siyosiy ong, ijtimoiy ong iboralari ana shundan kelib chiqqandir. Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o‘z ichiga olgan va albatta, ma’lum maqsadga yo‘nalgan holda aks etishi ongning zuhuridir. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, siyosiy, falsafiy nuqtai-nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmui hisoblanadi. Ijtimoiy ong deganda mana shular tushuniladi”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998. –Б.127

<sup>2</sup> Иброхимов А., Султонов X., Жўраев Н. Ватан туйгуси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. –Б.30-31

Demak, huquqiy ong jamiyat umumiy ongining bir qismi ekan, bu holda mantiqan unga umumiy ongga xos bo‘lgan jihat va xususiyatlar ham xos bo‘lishi tabiiydir. Ayni paytda, xuquqiy ong umumiy ongning aynan huquqiy borliqqa oid qismi ekan, demak unga umumiy ongga xos bo‘lmagan jihatlar mansub, degan xulosaga kelish mumkin. Biron-bir hodisaning mazmun va mohiyatiga etib borish uchun unga berilgan ta’riflarga e’tibor berish zarur. CHunki defitsiyalarda ob’ekt hisoblangan narsa va hodisaning eng muhim, ahamiyatli jihatlari o‘zining ifodasini topadi.

SHu o‘rinda huquqiy ongga manbalarda berilgan ta’riflarga e’tibor qaratamiz: prof. Z.M.Islomov huquqiy ong tushunchasiga shunday ta’rif beradi: “Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g‘oyalari, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta’riflash mumkin”<sup>1</sup>. Fikrimizcha, ushbu ta’rifda huquqiy ong nimalar, ya’ni fanday omillar asosida shakllanishi masalasi e’tibordan chetda qolgan.

Professor YU.A.Dmitrievning ta’rificha, “huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g‘oyalari, tasavvurlari, hislari yig‘indisidir”<sup>2</sup>. Ushbu ta’rifda huquqiy ongning muhim funktsiyasi bo‘lgan, Z.Islomov ta’kidlab ketgan baholash faoliyati e’tibordan chetda qolgan.

Rossiyalik huquqshunos olim A.N.Golovistikovaning huquqiy ongga bergen ta’rifi YU.A.Dmitrievning ta’rifi bilan bir xil, ya’ni “huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g‘oyalari, tasavvurlari, hislari yig‘indisidir”<sup>3</sup>. Bu ikki muallifning ta’rifi tasodifan aynan bir xil bo‘lib, unda

<sup>1</sup> Исломов З.М. Давлат ва хукуқ назарияси. –Тошкент: Адолат, 2007. –Б.537

<sup>2</sup> Қаранг: Ю.А.Дмитриев. Правосознание и правовая культура. / Теория государства и права. Под. ред. Пиголкина. –Москва: Юрайт-Издат, 2006. –С.547

<sup>3</sup> Головистикова А.Н. Правосознание и правовая культура. / Проблемы теории государства и права. –Москва: Изд.ЭКСМО, 2005. –С.658

insonlarning kutilayotgan, xohlanayotgan, Z.M.Islomov ta'biri bilan aytganda “orzu qilinayotgan huquqqa” nisbatan munosabatlari hamda huquqiy ong shakllanishining omillari nazardan chetga qolgan.

R.A.Romashov va A.G.Indyklarning ta'rificha, “huquqiy ong insonlarning ijtimoiy hayotning yuridik ahamiyatli hodisalariga (amaldagi qonunchilikka, yuridik amaliyatga, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklariga) nisbatan baholovchi ruhiy munosabatini ifodalovchi huquqiy tasavvurlari, qarashlari, g‘oyalari, hislari, hayajonlari majmuidir”<sup>1</sup>. Bu ta'rifda ham insonlarning kutilayotgan huquqga munosabati hamda huquqiy ongni shakllantirish omillari e'tibordan chetda qolgan.

Akademik V.S.Nersesyants mas’ul muharrirligida chop etilgan “Problemy obshchey teorii prava i gosudarstva” nomli kitobda huquqiy ongga quyidagicha ta'rif berilgan: “Huquqiy ong – bu insonlarning huquqqa va davlat-huquqiy hodisalarga nisbatan tasavvurlari, qarashlari, ichki ishonchlari, baholari, hislari va tuyg‘ulari yig‘indisidir”<sup>2</sup>. Bu ta'rifda ham insonlarning huquqiy ongi kutilayotgan huquqga nisbatan bo‘lgan munosabatni ham o‘z ichiga olishi tushib qolgan. Ayni paytda, Yuqoridagi ta'riflarning barchasida jiddiy yaqinlik mavjudligini e'tirof etish zarur. SHunday bo‘lishiga qaramay, ushbu bayon etilgan ta'riflar ichida Z.Islomovning ta'rifi ushbu ijtimoiy hodisaning muayyan jihatlarini batafsil qamrab olgan. Unda insonlarning nafaqat amaldagi huquq balki, istalayotgan, “orzu qilinayotgan” huquqga nisbatan munosabati ta'kidlangan.

YUridik qomusiy lug‘atda huquqiy ong “davlat va huquq nazariyasi va kriminologiyaning kategoriysi bo‘lib, u huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalarni o‘zida aks ettirishi bilan bog‘liq bo‘lgan hamda huquqiy ahamiyatli qadriyatlar, huquqni tushunish, zaruriy huquqiy tartibot to‘g‘risidagi tasavvurlar

<sup>1</sup>Карантинг: Теория государства и права. Под. ред. проф. Р.А.Ромашова. – СПб.: Изд.Р.Асланова. “Юридический центр Пресс”, 2005. –С. 346

<sup>2</sup> Проблемы общей теории права и государства. –Москва: Изд. Группа. НОРМА-ИНФРА, 2004. –С.396-384

bilan belgilanadigan ijtimoiy, guruhiy va individual ong sohalarini anglatadi”, deyilgan<sup>1</sup>.

Lug’atda berilgan ushbu ta’rif o‘ziga xos bo‘lib, unda huquqiy ongning shakllanish omillari ham o‘z ifodasini topgan, ya’ni huquqiy ong (inglizcha -legal awereness) “huquqiy ahamiyatli qadriyatlar, huquqni tushunish, zaruriy huquqiy tartibot to‘g‘risidagi tasavvurlar bilan belgilanadigan” hodisaligi qayd etiladi.

Huquqiy ong sub’ektiv ongning shakllaridan biri bo‘lib, u insonlarda huquq talablari yuzasidan ijobiy yoki salbiy munosabatni ishlab chiqishiga ta’sir etadi. Huquqiy ong o‘z navbatida quyidagilarni taqozo etadi: huquqning mazmun-mohiyati to‘g‘risda mushohada etishni; huquqiy qadriyatlarni boshqa ijtimoiy qadriyatlar, xususan axloqiy, diniy va siyosiy bilan o‘zaro nisbatlashni; huquqni uning ijtimoiy ahamiyati nuqtai-nazaridan baholashni; huquqga mos xulqning zarurligini chuqur anglab etishni; huquqni amalga oshirish natijalarini qabul qilishni<sup>2</sup>.

**Yuqoridagilarga asoslangan holda, huquqiy ong tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:** huquqiy ong bu jamiyatning taraqqiyot darjasи bilan belgilanadigan ijtimoiy ongning muhim bir tarkibiy qismi bo‘lgan, insonlarning huquq, siyosiy-huquqiy hodisalar, yuridik amaliyat, huquqiy tizim va istalayotgan, kutilayotgan huquq haqidagi fikrlari, o‘ylari, his-tuyg‘ulari, qarashlari, iztirob-kechinmalari hamda baholari va tasavvurlari majmuasidir.

Ma’lumki, jamiyatning ma’naviyati, madaniyati, shu jumladan, huquqiy madaniyati nihoyatda murakkab va serqirra ijtimoiy hodisadir. Jamiyatning madaniyati umuminsoniy ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarning tarixan shakllangan tizimi bo‘lib, unga muvofiq ravishda hayot tarzi qaror topadi va insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi.

<sup>1</sup>Қаранг: Юридический энциклопедический словарь. – Москва: ИНФРА-М, 1997. –С.240

<sup>2</sup>Қаранг: Теория государства и права. Под. ред. проф. Р.А.Ромашова. – СПб.: Изд.Р.Асланова. “Юридический центр Пресс”, 2005. –С.346-347

Huquqiy madaniyat nima uchun kerak? Insonda huquqiy madaniyat qachon va qaerda shakllanadi? Mazkur omil qanday holatlarda va kim tomonidan shakllantiriladi?, degan savollarni o‘rtaga qo‘yar ekan tadqiqotchi I.A. Matjanov, o‘z navbatida ushbu savollarga quyidagicha javob beradi: “Mazkur savollarga javob berishdan oldin, eng avvalo, huquqiy madaniyat tushunchasining o‘zini anglab olishimiz lozim. To‘g‘ri, huquqiy madaniyat tushunchasini anglab olishimiz uchun yuridik lug‘at yoki entsiklopediyaga murojaat etishimiz mumkin. Lekin, tayyor tushunchalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish samarali natija berarmikin? Hukuqiy madaniyatni inson ongida shakllantirish va uni rivojlanirishdagi eng birinchi qadam, bu huquqiy madaniyat tushunchasini insonning o‘z qarashlari orqali anglay olishidir. Inson huquqiy madaniyat deganda o‘z ongida nimalarni idrok etsa, o‘sha qarashlariga sodiq qolishiga harakat etadi, o‘z qarashlarini himoya qiladi va, bu orqali, mazkur insonda shaxsiy fikrlar vujudga keladi. Demak, birinchi navbatda, huquqiy madaniyatning vujudga kelishining eng birinchi belgilaridan biri, bu – insonning shaxsiy fikrga ega bo‘lishidir. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarni shaxsiy fikrga ega qilib tarbiyalash harakatlarining naqadar muhim omil ekanligidan darak beradi”<sup>1</sup>.

Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. SHu bois, huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjalalar, huquqiy ong rivojida erishilgan ma’naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo‘ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o‘rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.

“Huquqiy madaniyat” tushunchasi ko‘proq huquqiy voqelikning ahamiyatlilik darajasini, uning tobora rivojlanish holatini, unga madaniy taraqqiyot yutuqlari

---

<sup>1</sup>Матжанов И.А. Ҳукукий маданият ва огоҳлик/ XXI аср - интеллектуал авлод асри. Ёш олимлар ва талабаларнинг худудий илмий-амалий конференцияси материаллари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети, Нукус, Қорақалпоқ давлат университети, 2015. – Б18.

singib borishini tavsiflaydi. Zero, huquqiy madaniyat shaxs erkinliklari va xavfsizligini, inson huquqlarini ta'minlash sharti, uning huquqiy himoyalanganligi va fuqaroviylar faolligining kafolati hisoblanadi, hokimiyatni insonning huquqiy maqomini ta'minlashga safarbar etadi. SHuningdek, huquq tizimi, huquqiy madaniyat va huquqiy tartibga solish mexanizmi kategoriyalarini ular hajmining qamroviga qarab farqlash kerak bo'ladi.

Huquqiy madaniyat keng qamrovli, serqirra, serma'no hodisa bo'lganligi bois, uni birgina ta'rif doirasiga sig'dirish mushkul. YUqorida ta'kidlangan belgi va xususiyatlardan tashqari, huquqiy madaniyat quyidagi jihatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi:

- huquqiy voqelikni anglash, ya'ni huquqiy ongning muayyan holati;
- umumiyligi shart-sharoitlar, jamiyatning ma'rifiylik darajasi;
- aholining huquqni, qonunlarni bilish darajasi, huquq normalariga yuqori hurmat darajasi, ularning nufuzi;
- huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayonlarining yuqori sifati;
- huquqiy faoliyatning, qonun ijodkorligi, huquqni muhofaza qilish, boshqaruv va boshqa faoliyatning samarali usullari;
- fuqarolar va mansabdor shaxslarning qonunga so'zsiz itoatkorligi.

Ta'kidlash joizki, huquqiy madaniyat amaldagi qonunchilik asoslari borasidagi muayyan bilimni, undan foydalanish ko'nikmasini nazarda tutadi. Jamiyat huquqiy tizimi hamda amaldagi qonunchilik haqida zaruriy bilimlarga ega bo'lmadan turib, fuqarolar o'z huquq va burchlarini amalga oshira olmaydilar hamda o'z manfaatlarini himoya qila olmaydilar.

“Huquqiy madaniyat” keng ko'lamli, ma'nodor tushunchadir. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilan ajralib turadi. CHunki huquqiy madaniyatga berilgan xar qanday tarif ham muayyan tarixiy jixatdan uning mazmunini to'la-to'kis ochib bermaydi.

Huquqiy madaniyat tushunchasiga tarif berishda, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan huquqshunoslar, olimlar turlicha fikrlar berib o'tishgan. Bu muammoni

hal etishda birinchi navbatda xuquq va madaniyat tushunchalari bilan o‘zaro tadqiq qilish katta o‘rin tutadi deydi R.Maxmudov o‘zining «Xuquq va madaniyat» nomli risolasida.<sup>1</sup> «Madaniyat atamasi» o‘z xajmi va mazmuni jihatidan xilma-xil bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Masalan, bu ma`no ostida inson tomonidan vujudga keltirilgan moddiy va manaviy qadriyatlar majmuasi jamiyatning g‘oyaviy xolati, uning sifati, ijodiy faoliyat va uning mahsuli, inson faoliyati va uning majmuyi turlari, jamiyatning manaviy xayoti va hakozolar yotadi.

Bugungi kunga kelib huquqiy madaniyatning 250 ga yaqin ta’rifi shakllantirilgan. Ushbu ta’riflarning ko‘pchiligi huquqiy madaniyat va uni amalga oshirish, davlat organlari va mansabdar shaxslarning faoliyati haqidagi tasavvurlar yig‘indisi degan nuqtai nazarga asoslanadi.

Xususan professor Z.M.Islomov huquqiy madaniyatga quyidagicha ta’rif beradi: “Huquqiy madaniyat deganda, huquqiy bilim andazalari va uning tabiatini, huquqiy tizim bahosini, shuningdek, huquqiy xatti-harakatlar sohasini tartibga soluvchi ijtimoiy kadriyatlar, normalar, an’ana va andazalar mazmun-mohiyatini tushunish kerak”<sup>2</sup>. A.X.Saidov va U.Tojixonovlar esa huquqiy madaniyatni “Jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolida kabul kilinishi mumkin bo‘lgan alohida ijtimoiy hodisadir”<sup>3</sup> deb ta’riflashadi.

Rus olimlari tomonidan yozilgan adabiyotlarda huquqiy madaniyat “huquqiy fikrlash va huquqiy vokelikni idrok kilishning muayyan darajasi”, shuningdek, “aholi tomonidan konunlarni bilishning tegishli darajasi va normalarni hamda ularning nufuzini hurmat kilishning yukori darajasi”<sup>4</sup> deb ta’riflanadi.

Huquqiy adabiyotlarda madaniyatning moddiy qadriyat sifatida qaralishini biz A.F.Gramina, V.M.CHxekvadze, L.S.YAvich va boshqa mualliflarning ilmiy ishlarida uchratishimiz mumkin. Ikkinchi bir yondashuvda esa madaniyatga ijodiy

<sup>1</sup> Маҳмудов Р. “Хукук ва маданият”. Т. Ўзбекистон, 1994 йил 4-б

<sup>2</sup> З.Исломов. Давлат ва хукук: умумназарий масалалари. Т: Адолат. 2000 й.

<sup>3</sup> У.Тожихонов. А.Саидов. Хукукий маданият назарияси. Дарслик. Т 3.2 . Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси. 1998 й.

<sup>4</sup> Алексеев С.С Механизм и правового регулирования социалистическом государстве. – М.-1996 г с 176

faoliyatning sinonimi sifatida qaralishidir. Bu yondashuvni huquqiy sohada ishlatajigan bo‘lsak, bunda huquqiy ijodkorlik faoliyati tushuniladi.

Huquqiy madaniyatni o‘rganishda bunday yondashuvni E.V.Agranovskaya, E.A.Zarchenko, S.N.Kojevnikov kabi mualliflarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin. Keyingi yondashuv, jamiyat ijtimoiy tizimidagi subektiv unsurlarni madaniyat tushunchasidan ajratib olishdir. YUridik adabiyotlarda huquqiy madaniyatni aniqlashda subektiv-intelektual unsurlar huquqiy sovodxonlik, huquqiy tushunish va boshqalarga tayanib ish olib borgan mualliflar ham mavjud. Bularga S.S. Alekseev, E.A.Lukasheva, R.K.Gusinov va boshqalarni ishini misol qilib olishimiz mumkin.

Biz ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan yana bir yondashuv, madaniyat tushunchasini subektning manaviy rivojlanish darajasi bilan bog‘lab o‘rganishdir. Huquqiy madaniyatni o‘rganishda, bu fikr ham o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki subektning huquqiy madaniyati darajasi huquqiy madaniyatni tasniflashda uni o‘rganishda assosiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, huquq va madaniyat o‘zaro bog‘liq kategoriyadir. Madaniyat shaxsning erkin va har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi hamda taminotning ijtimoiy rivojlanish darajasining o‘lchovi sifatida maydonga chiqadi. SHunday qilib, madaniyat, sotsiologik ma’noga, inson o‘zini rivojlantiradigan dunyoni bildiradi. Demak, madaniyat falsafasini inson falsafasi sifatida ta’riflaydigan mualliflarning xam fikriga qo‘shilmoq lozim. YAqingacha madaniyat umumiylazariyasining to‘liqligicha tadqiq etilmaganligi bois jamiyatda shaxs huquqiy madaniyati tushunchasini aniqlashda asosan quyidagi unsurlar ajratib ko‘rsatilar edi: shaxsning o‘z huquqlarini bilishi, qonun va boshqa me’yoriy xujjalarning mazmuni va nimaga yo‘naltirilganini aniqlashi unga nisbatan hurmatni shakllantirishi, qonuniylik vaadolatni xis qilish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, huquqiy madaniyatga uning tarkibiy unsurlari asosida ta’rif beradigan bo‘lsak, uni quyidagicha ta’riflash mumkin bo‘ladi:

Huquqiy madaniyat kishilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo‘lgan xurmati, huquqiy normalarni ijro etishi, hayotga tadbiq eta olish ko‘nikmasi, huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasidir. Jamiyat a’zolarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta’minlaydi.

Huquqiy madaniyat fuqarolarning etukligi va onglilagini ko‘rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obruyi singari elementlardan tashkil topadi. Huquqiy madaniyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo‘lga qo‘yilganligi madaniyatning umumiyligi darajasi ta’sir qiladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ongning amaliyoti, ya’ni huquqni qo‘llash, amaliyotga tadbiq etishdir. SHaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo‘lmisin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, jamiyat uchun katta zarardir.

Huquqiy madaniyat har bir davlatning qonun asoslari, huquq me’yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o‘z faoliyatida ularga rioya etishi. Huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti hamda fuqarolik jamiyatida kishilarning etuk ma’naviyati, huquqiy burch va mas’uliyatlari tushuniladi. Darxaqiqat, “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish milliy dasturi”da ham ko‘rsatib o‘tilganidek, “yuksak huquqiy madaniyat – demokratik taminot poydevori xamda huquqiy tizim etukligining ifodasidir”<sup>1</sup>. U jamiyatdagi turli xil xayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruxlarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta’minlovchi va mustaxkamlovchi omildir.

Mamlakatni demokratik yangilash va madernizatsiyalash, ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar ongida insonparvarlik

<sup>1</sup> Қаранг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 29 августда тасдиқланган “Жамиятда хуқуқий онг ва хуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури”

g‘oyalari va demokratik qadriyatlarni shakillantirishda huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning o‘rni beqiyosdir.

Hozirda jamiyatimizning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan fuqarolarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liq.

SHu sababli, jamiyatda huquqiy ongni va huquqiy madaniyatni oshirish ishlarini kuchaytirish, aholi o‘rtasida huquqiy bilimlar va huquqiy madaniyat targ‘ibotini rivojlantirish har doim ham jamiyat a’zolarining birlamchi vazifasi bo‘lib kelmog‘i lozim.

## **1.2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ilmiy – nazariy asoslarining yoritilishi**

“Huquqiy madaniyat” iborasi jamiyat huquqiy tizimini, huquqiy ustqurmasini tavsiflash uchun qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi”da huquqiy madaniyatning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati yuzasidan quyidagicha baho beradi: “Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning etuklik ko‘rsatkichidir”<sup>1</sup>. Jamiyat huquqiy madaniyatini tahlil etishda asosiy e’tibor huquqiy hodisalarining rivojlanish darajasiga, huquqiy qadriyatlarning, inson huquq va erkinliklari ta’rifi va izohiga, jamiyatda fuqaroning muhofazalanganlik holatiga qaratiladi. “Huquqiy madaniyat” tushunchasi muayyan jamiyatda huquqiy hayotning “sifatiga” beriladigan bahoni, uni boshqa ilg‘or huquqiy andozalar, ideallar va qadriyatlar bilan qiyoslashni nazarda tutadi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. – Б.27.

Akademik SH.Z.O‘razaevning talqiniga ko‘ra, “huquqiy madaniyat –huquqiy tizimning etukligini, rivojlanganligini, qonuniylikning holatini, kishilarning huquqiy talablarga, qonunga munosabatini, aholi keng ommasining huquqiy savodxonlik darajasini, ularning huquq buzilishlariga murosasizligini qamrab oluvchi keng tushuncha”dir<sup>1</sup>.

Tahlillarga asoslanib shuni ta’kidlash lozimki, huquqiy madaniyat:

- muayyan jamiyat huquqiy institutlari, jarayonlari, faoliyat shakllariga nisbatan ustuvor qadriyat sifatida yondashishni o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, u jamiyatning huquqiy kadriyatlarini, huquq jabhasida erishilgan ilg‘or yutuqlarni ifodalaydi;
- mamlakat huquqiy hayotining sifat holatini aks ettiradi, shu sababli, har bir davlatga o‘z huquqiy madaniyat darajasi xosdir;
- jamiyatning huquqiy tartibga solish borasidagi manfaatlari va ehtiyojlarini anglashning oliy shakli hisoblanadi, binobarin, huquqning o‘zi ham ijtimoiy qadriyatdir;
- umumiy madaniyatning bir qismi hisoblanadi, biroq ijtimoiy-ma’naviy muhitda alohida, mustaqil o‘rin egallaydi;
- jamiyatning axloqi va huquqiy faoliyatni amalga oshiruvchi odamlarning axloqiy fazilatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi;
- huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muqarrar sharti va omili hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning mazmun-mohiyatni aniqlashda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: 1) huquqiy ong, ya’ni fuqaroning huquqiy muammolar va huquqiy institutlarga bo‘lgan munosabati; 2) huquqiy madaniy qadriyatlar, ya’ni huquqiy tizimga xos bo‘lgan qadriyatlar; 3) umumiy huquqiy madaniyat, bunda jamiyatda e’tirof etilgan qadriyatlar (masalan, jamoyatchilik yoki individuallik an’analari)<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Уразаев Ш.З. Перестройка и правовая культура. – Ташкент: “Фан”, 1988. –С.5-6

<sup>2</sup> Қаранг: James L. Gibson and Gregory A. Caldeira. The Legal Cultures of Europe //Law & Society Review, Vol. 30, No. 1 (1996), pp. 59. (<http://www.jstor.org/stable/3054034>).

SHu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning huquqiy madaniyat tushunchasiga bergan tavsifi o‘zining keng qamrovligi, ushbu tushunchaning eng muhim jihatlarini o‘zida ifoda etganligi bilan ajralib turishini alohida ta’kidlash zarur ya’ni, “huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma’lumotlardan habardor bo‘lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo‘ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish, o‘z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani, turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir”<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillardan boshlab jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirishga e’tibor qaratildi va bu borada bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 13 iyunda qabul qilgan “YOshlarning huquqiy ta’limini takomillashtirishning Kompleks dasturi to‘g‘risida”gi 296-sonli Qarori, 1997 yil 29 avgustda tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 29 maydagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 235-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi 1997 yil 25 iyun Farmoni, “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to‘g‘risida”gi 1997 yil 6 oktabr Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 2001 yil 4 yanvar Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Voyaga

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари / Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1995. –Б.175.

etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 17 yanvardagi Qarori kabilar shular jumlasidandir.

"Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"da qayd etilishicha, "huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar maktabgacha tarbiya muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'quv davomida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi, aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur"<sup>1</sup>.

O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi bo'lishi beshta asosiy tamoyilning biri ham "Qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi konstitutsiya va qonunlarni istisnosiz hamma hurmat qilishi lozim"<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, Konstitutsiyani bilish, uning mazmun-mohiyatini targ'ib va tashviq qilish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tashkil etish to'g'risida" Birinchi Prezidentimizning 2001 yil 4-yanvardagi farmoyishi e'lon qilindi. Mazkur farmoyishga muvofiq barcha ta'lim muassasalarida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish"<sup>3</sup> kurslarini o'qitishni yo'lga qo'yish lozimligi ko'rsatilgan.

Mustaqillik tufayli ta'lim-tarbiya, madaniyat va ongga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Jamiyatda Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 1997. - № 9. - 227-модда.

<sup>2</sup>Ўша асар қаранг

<sup>3</sup>қаранг "Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ташкил этиш тўғрисида" Президентимизнинг 2001 йил 4-январдаги фармойиши

Aholining Huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan masalalarni davlat siyosati darajasiga ko‘tarilashida Birinnchi Prezidentimizning 1997 yil 25 iyun oyida “tarbiyani yaxshilash, aholining Huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”<sup>1</sup> PF-1791-sonli farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u Respublikamizda Huquqiy ong va huquqiy madaniyatiga oid milliy dasturni qabul qilinishiga zamin yaratdi. Nazarimizda, bunday farmonni imzolanishiga juda katta ehtiyoj mavjud edi. Biz keng ko‘lamli tadbirlar deb hisoblagan ishlarimiz etarlicha jamlanmagan, tarqoq holda ekanligini tan olishimiz zarur. Har bir tarmoq, idora o‘z vazifasiga oid taraflarinigina aholi o‘rtasiga olib chiqishdan o‘zga chorasi yo‘q edi. Bahona ham tabiiy umumdavlat siyosati qamrovida dastur yo‘qligiga ishora qilinardi. SHuning uchun ham mazkur hujjatlarni o‘z davrida yaratilgan, deb aytishimiz mumkin.

Qonunga bo‘lgan hurmatni tarbiyalash, fuqorolarning Huquqiy ong va huquqiy madaniyatini ko‘tarishning dolzarbligiga alohida etibor bergen holda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti shunday degandi: “huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. SHu bilan birga Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajada ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan chuqrur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, normalar odamlar ongiga singan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi”<sup>2</sup>.

O‘zbekistonda islohotlarning negizini yaratishning bir qancha muhim yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirish zarur deb bilamiz bunda, asosiy vazifa

<sup>1</sup> Президентимиз И.А.Каримовнинг 1997 йил 25 июнь ойида “тарбияни яхшилаш, аҳолининг Ҳукуқий онг ва ҳукукий маданияти даражасини юксалтириш, ҳукукшунос кадрларни тайёrlаш тизимини такомиллаштириш, жамоатчилик фикрини ўрганиш ишини яхшилаш ҳақида”<sup>1</sup> ПФ-1791-сонли фармони

<sup>2</sup> И.А.Каримов.”Буюк келажак сари”.Ўзб. 1998 й. 127-с

hozirgi sharoitlarga mos keladigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishdangina emas, balki ularga og‘ishmay amal qilinishini ta’minlashdan ham iborat bo‘lishi lozim.

Qabul qilingan normativ hujjatlarni muvaffaqiyat bilan hayotga tadbiq etish ko‘p jihatdan yangicha ongni, madaniyatni shakllantirish bilan bog‘liq. Huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ularning bajarilishi bilan belgilanishi yaxshi ma’lum. Bozor iqtisodiyoti sari borayotgan yo‘limiz biz uchun tarbiya maktabi bo‘lmog‘i darkor. Binobarin, bundan kelib chiqadigan muhim saboq shuki qonunga amal qilgan holda yashash va mehnat qilishni o‘rganishimiz, o‘z huquq va erkinliklarimizni qonun orqali himoyalashni, o‘z majburiyatlarimizni og‘ishmay bajarishni o‘rganib olishimiz kerak. Qonun ustuvorligi tantana qilishiga, unga og‘ishmay rioya etish esa har bir kishining muqaddas burchi bo‘lib qolishiga erishishimiz kerak. 1997 yil 20 mayda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning huquqshunos olimlar, huquqni himoya qiluvchi organlar rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan o‘tkazgan uchrashuvi, huquq tartibot organlari xodimlarining Huquqiy ong va huquqiy madaniyatga katta e’tibor berish kerakligini ko‘rsatadi. “Ichki ishlar idoralari xodimlarining huquqiy madaniyati umuman madaniyatga taaluqli asosiy mezonlar bilan ta’riflanadi. Ammo shuning bilan birga ularning Huquqiy ong va huquqiy madaniyatida bir qancha o‘ziga xos, odatdagi fuqorolarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatidan ajratib turadigan, lekin afsuski, ba’zan etarlicha e’tibor berilmaydi”<sup>1</sup> deb ta’kidlaydi U.Tadjixanov.

YUrtboshimiz O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 23-fevralida bo‘lgan 1-sessiyasidagi so‘zlagan “O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining tamoyillari“ ma’ruzasida Huquqiy ong va huquqiy madaniyatiga to‘xtalib shunday deydi: “Huquqiy ong va huquqiy madaniyat

---

<sup>1</sup> У.Таджиханов.”Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг-маънавий муаммолари”. Т.ЎзР.ИИВ Акад.1996 й. 137-с

darajasi faqatgina qonunlarni bilish, ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat degani turli mojorolarni hal qilishda qonunga hilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir<sup>1</sup>. Sir emaski, oddiy fuqaro, avvalo, davlat nomidan ish ko'rvuchi mansabdorlarning o'zлari qonunlarni qanday bajarayotganliklariga e'tibor beradi. Agar shunday bo'lmasa, agar o'sha organlar yoki mansabdar shaxslarning o'zлari qonunlarni oyoq osti qilsa mazkur qonunlarning o'zi obro'sizlanadi, yanayam to'g'rirog'i, jamiyatning ma'naviy asoslariiga putur etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 29-avgustda bo'lib o'tgan VI sessiyasida so'zlagan nutqida fuqarolarning ongi masalasiga yana bir bor to'xtalib: "Biz odamlarning eskicha pisixologiyasini o'zlashtirib, ularda yangi ongni shakllantirishimiz lozim. SHunday bo'lsinki, har bir kishi inson erkinliklari ayni vaqtida muayyan burch, majburiyat va ma'suliyat ekanligini chuqur his qilib tursin. Barcha o'quv yurtlarining taxsil dasturlariga "Inson huquqlari" maxsus kursini kiritish, shuningdek, ta'lim va tarbiyaning butun jarayonini insonparvarlik g'oyasiga bo'ysundirish zarur", deb ta'kidlaydi. Aholining keng qatlamlariga mo'ljallangan "Huquq-pravo-lav", "Hayot va qonun", "Qonun himoyasida", "Ijtimoiy fikr", "Demokratiya va inson huquqlari", "Inson va qonun", "Qalqon", "Qonun nomi bilan", "Xo'jalik va huquq" kabi yangi yuridik gazeta va jurnallar paydo bo'ldi. Mehnat jamoalarida, mahallalarda, korxona va tashkilotlarda bilimlarni targ'ib qilishning yangi usullari tiklanmoqda. 2000 yil yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida Prezidentimiz so'zlagan nutqlarida ma'naviyat va huquq sohasida oldimizda turgan vazifalarni birma-bir sanab: "Aholimiz, ayniqsa yoshlarning ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini keng

---

<sup>1</sup> И.А.Каримов. "Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир". -Т.Ўз-н.1995 й. 189-с

ko‘lamda amalga oshirishga alohida e’tibor berish zarur deb o‘ylayman. Toki har bir fuqaro o‘z haq-huquqlarini bilsin va uni himoya qilsin”- deb takidlaydi.

Har bir tarbiya, jumladan tarbiya asosini milliy mafkura tashkil etadi. Miliy mafkura negizida mafkura, huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanadi. Miliy istiqlol g‘oyalarini yoshlarimiz ongiga sindirishga qaratilgan o‘quv, ilmiy-uslubiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta’minlash va yanada takomillashtirish maqsadida 2001 yil 18-yanvarda “Milliy istiqlol g‘oyasi: asossiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida Prezidentimiz Farmoyishi e’lon qilindi. Bu milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatdi. Zero, ma’naviy etuk insonlargina barkamol jamiyat qurishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi”<sup>1</sup>da takidlab o‘tganidek.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda.

Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiysi idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan

---

<sup>1</sup> ҚарангЎзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг. 2010 йил 12 ноябрда “Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси”

yangi huquqiy mexanizmlarni o‘rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish talab etilmoqda.

Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo‘llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o‘tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo‘lgan tegishli vakolatlarning berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi hamda ushbu organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. YUksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning etuklik ko‘rsatkichidir.

SHu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan maqsadli keng ko‘lamli choratadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishini ta’minlaydi, deb o‘ylayman.

Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonunni qabul qilish fursati etdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va sub’ektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo‘yish zarur.

Mening sizlarga murojaatim, da’vatim shuki, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlar jarayoni butun jamiyatimiz, saxovatli

zaminimizda yashayotgan har qaysi insonni amaliy ishlarga safarbar etadigan umumiy maqsadga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solaylik, el-yurtimiz manfaati, ona Vatanimizning ravnaqi va kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilaylik.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”, “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”, “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, “Bunyodkorlik yo‘lidan”, “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari”, “YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi”, “Barkamol avlod orzusi”, “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “Buyuk kelajak sari”, “YUksak ma’naviyat engilmas kuch” nomli asarlari va risolalarida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-2016 yillarda bo‘lib o‘tgan chaqiriq sessiyalarida so‘zlagan nutqlarida O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lini o‘ziga xos shart-sharoitlari, asoslari chuqur ilmiy-falsafiy tahlil qilib berilgan.

Fikrimiz hulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, biz Birinchi Prezidentimizning asarlarini chuqur mutoala qilish natijasida huquq sohasida quyidagi yo‘nalishlarni ilmiy asoslab berilganligini ko‘rdik:

**birinchidan**, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini tan olish va qonun oldida tenglik;

**ikkinchidan**, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

**uchinchidan**, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, ularni himoya qilish;

**to‘rtinchidan**, aholi keng qatlami o‘rtasida targ‘ibot va axborotni yo‘lga qo‘yish.

Ana shu ko‘rsatmalardan kelib chiqib, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish uchun yaratilayotgan yangidan-yangi imkoniyatlari, shart-sharoitlardan imkonи boricha foydalanib, jamiyatda yuksak huquqiy onga, huquqiy madaniyatga va ma’naviyatga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirishda har bir fuqaro o‘z xissasini qo‘shishi lozim.

### **1.3.Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish asoslari**

#### **1.4.**

Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagagi “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Mamlakatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir. SHaxsning siyosiy-huquqiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi davlatimiz o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarga erishishining muhim omilidir.

Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjalarga nisbatan chuqrur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir.

Bunda g‘oyat muhim jihat – jamoatchilikka davlat hokimiyyati va boshqaruvidoralari faoliyati haqida ma’lumot berish, davlat hokimiyyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlardan, birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga doir qarorlardan aholini keng xabardor qilib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Халқ сўзи. 8 феврал 2017 йил

Bugungi globallashuv zamonida jahon jamoatchiligini, xalqimizni hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilik va o‘zgarishlardan o‘z vaqtida xabardor qilish, ayniqsa, fuqarolarning huquqiy axborotlar olishini keng ta’minlash, shu yo‘l bilan davlat va jamiyatga bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini xolis va haqqoniy aks ettirish talab etiladi.

Ayniqsa, yoshlarning huquqiy axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda zamonaviy axborot vositalari imkoniyatidan keng foydalanish zarurligini inobatga olgan holda, huquqiy yo‘nalishdagi axborot tizimlari soni va sifatini oshirish, ularning foydalanish uchun qulayligi masalalari muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim va tarbiya tizimi, ma’naviyat va ma’rifat bilan bog‘liq barcha muassasalar o‘z faoliyatlarini sof axloqiy, yuksak ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish va omma ongiga singdirish va eng muhimi fuqarolarning jamiyat hayotining barcha sohalari, xususan, huquqiy masalalar doirasida ham faolligini oshirish vazifasiga safarbar etishlari lozim.

Aytish mumkinki bugungi kunda harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilishi boshlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2017 yildagi PQ-2761-son “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ga Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2017 yildagi F-4849-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2017 yildagi PF-4966-son “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda tubdan oshirish masalasi bo‘yicha ishlar jadal amalga oshirilayotganligini bildiradi.

SHu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasini joriy “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da va keyingi yillarda amalga oshirishga oid davlat dasturida aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish borasida quyidagi vazifalar belgilangan:

**Birinchidan**, qabul qilingan qonun hujjatlarini aholi va ijrochilarga o‘z vaqtida etkazishning samarali tizimini yaratish maqsadida “**Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqiladi. Unda quyidagi munosabatlarni tartibga solish nazarda tutiladi:

normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatishning amaliy tashkiliy-huquqiy mexanizmlari;

huquqiy axborotni tarqatishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va ularning vakolatlari;

normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganidan so‘ng ularning foydalanuvchigacha etkazish bosqichlari;

qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarining kontseptsiyalari, tushuntirish xatlarini e’lon qilish tartibi va boshqalar.

**Ikkinchidan**, fuqaro, jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatlarda aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yanada yuksaltirish, davlat organlari xodimlari, mansabdar shaxslar va fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish samaradorligini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish va bu boradagi munosabatlarni tartibga solish imkonini berishga qaratilgan **Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi** loyihasi tayyorlanadi va qabul qilinadi.

**Uchinchidan**, huquqiy axborotni o‘z vaqtida hamda sifatli etkazish mazkur vazifa yuklatilgan davlat organlari axborot xizmatlarining hamkorlikda faoliyat

yuritishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda ushbu faoliyatni reja asosida, muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aholining faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, jamiyatda huquqiy madaniyat va huquqiy ongini yanada yuksaltirish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari hamkorligini ta’minalashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

**To‘rtinchidan**, targ‘ibot tadbirlarining samarador shakli bo‘lib, bevosita joylarga chiqqan holda aholining turli qatlamlari bilan o‘tkaziladigan jonli muloqot hisoblanadi. SHu sababli davlat organlari OAVdan qilinadigan chiqishlardan tashqari asosiy e’tiborni mazkur turdag‘i targ‘ibot tadbirlariga qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Barcha davlat organlari tomonidan mahallalarda, o‘quv muassasalarida, korxona, tashkilot va idoralarda jamiyat hayotidagi dolzarb muammolar muhokamasi, qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida tizimli ravishda uchrashuvlar o‘tkazish amaliyoti joriy etiladi.

**Beshinchidan**, qonun hujjatlarini tarqatish tizimini takomillashtirish nuqtai nazaridan Adliya vazirligi tuzilmasini qayta ko‘rib chiqiladi, qonun hujjatlari milliy elektron bazasini qo‘srimcha ma’lumotlar bilan to‘ldirish va aholiga erkin foydalanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish masalarini nazarda tutadigan “**Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi ishlab chiqish nazarda tutilgan. Shu asosda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 fevraldag‘i “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2761-sod qarori qabul qilindi. Unda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ni, ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarni ijrochilarga o‘z vaqtida etkazishni ta’minalash, ularning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish, shuningdek tegishli qonun hujjatlari matnidan moneliksiz foydalanish imkonini yaratish va o‘z tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida qonun hujjatlari normalarining

bir xilda qo'llanilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyyati organlarining muhim vazifalari belgilab berildi.

**Oltinchidan**, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar faoliyatini muvofiqlashtirishning tartibi va mexanizmlarini belgilab berishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi ishlab chiqiladi.

**Ettinchidan**, huquqiy ta'lif va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish va kuchaytirish mexanizmini o'z ichiga olgan davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqilishini nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi tayyorlanadi. Qaror asosida huquqiy ta'lifning davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqiladi; uzlusizlik va uzviylik tamoyillari asosida huquqiy ta'lif modeli ishlab chiqiladi; oila, mакtabgacha ta'lifdan boshlab huquqiy ta'lif-tarbiya tizimining sifati yaxshilanadi.

**Sakkizinchidan**, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan aholining huquqiy faolligini, huquqbazarliklarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish darajasini oshirishga qaratilgan "Men har qanday huquqbazarlik holatlariga qarshi kurashda faol ishtirok etaman", "Mahallamiz jinoyatchilikka qarshi turadi" aktsiyalari o'tkaziladi. Bunda, birinchi navbatda, mahallalarda huquqbazarlik va jinoyat sodir etgan fuqarolarning xatti-harakatlarini muhokama qilish amaliyotini keng joriy etish ko'zda tutilgan. Buning natijasida jamiyatda qonunlarga hurmat, huquqbazarlik holatlariga murosasiz munosabatda bo'lish borasida fuqarolik pozitsiyasining kuchayishiga hamda huquqbazarliklarning oldini olishga erishiladi.

**To'qqizinchidan**, aholini, ayniqsa, yoshlarni diniy ekstremizm, aqidaparastlik kabi buzg'unchi harakatlar ta'siridan asrash maqsadida mahallalarda va ta'lif muassasalarida "**Islom ma'rifati aqidaparastlikni qoralaydi**", "**Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid**" mavzularida uchrashuv va davra suhbatlarini tashkil etish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqiladi. Ushbu dasturning joriy etilishi asnosida yoshlarda dinlar bo'yicha to'g'ri va haqqoniy

ma'lumotlar shakllanishiga, ularning savollariga mutaxassislar tomonidan haqqoniy faktlarga asoslanilgan javoblar berilishiga, milliy an'analarga, boy madaniy merosiga tayangan holda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tizimli olib borishga erishiladi.

**O'ninchidan**, ko'rik tanlovlарини о'tказиш режаси асосида та'лим мусасалари о'кувчи ва талабаларининг хукуқиёт билимлари ва саводхонлигини янада ошириш ва mustahkamlashга qaratilgan "Huquq bilimdonlari", "Siz qonunni bilasizmi?", "Tafakkur sinovlari", "Konstitutsiya – baxtimiz poydevori" respublika ko'rik tanlovlari o'tkaziladi. Tanlovlar orqali o'кувчи талабаларда хукуқиёт билимларни янада ошириш ва mustahkamlashга erishiladi hamda bu sohada iqtidorli yoshlar aniqlanadi. SHuningdek, tanlov ishtirokchi jamoalari bilan birga, tinglovchi sifatida jalg qilingan keng yoshlar qatlamini ham huquqiy ongini oshirishga erishiladi.

**O'n birinchidan**, хукуqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan hayotiy misollarga asoslangan, хукуқиёт-ма'rifiy yo'nalishdagi "**Jinoyatdan saqlaning!**" ruknida ommabop risolalar tayyorланади ва nashr etiladi, ularning taqdimotlari o'tkaziladi. Mazkur adabiyotlar "Kamolot" YOIH orqali yoshlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali esa keng aholi ommasiga etkaziladi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, хукуqbazarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari samaradorligini oshirishga erishiladi.

**O'n ikkinchidan**, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari hamda aholining хукуқиёт ongi va хукуқиёт madaniyatini yuksaltirish, ularga qabul qilingan yangi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida mahallalarda haftada bir marta "**Huquqiy bilimlar**" o'quv mashg'uloti joriy etiladi va doimiy o'tkazib boriladi. Buning natijasida aholiga amaldagi qonun hujjatlarining, ayniqsa yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlarininining maqsadi, mazmun-mohiyatini o'z vaqtida etkazishga erishiladi.

Qabul qilinishi ko'zda tutilayotgan hujjatlar va chora tadbirlar avvalambor, oldimizda turgan buyuk maqsadlarimizga bosqichma-bosqich erishish, bu yo'lda duch keladigan barcha g'ov va to'siqlarni engish jarayonida har bir o'zbekistonlik

uchun eng ta'sirchan qurolga aylanadigan kuch – bu xalqimizning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, qalbida erkinlik va mas'uliyat tuyg'ularini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Ayni vaqtida huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ularning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanishini nazarda tutadigan bo'lsak, dasturda belgilangan chora tadbirlar qonunlarimizni muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etishga, normativ-huquqiy hujjatlar bajarilishining monitoringini kuchaytirishga olib keladi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish bosh maqsadimiz ekan, huquqiy savodxonlikning mukammal zamonaviy tizimini yaratish birinchi darajali vazifalarimizdan biri bo'lmog'i lozim. Darhaqiqat ushbu tadbirlar pirovard natijada, jamoat tartibi va intizomini mustahkamlashga, milliy huquqiy davlatchilikni, yuqori darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi muqarrar. Umuman olganda, ushbu davlat dasturi mamlakatimizdagi barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishni yanada takomillashtirish, aholi o'rtasida huquqiy bilimlar targ'ibotini kuchaytirish borasidagi ishlarini yanada jadal, keng miqyosda va tartibli tashkil etishlari uchun asos bo'ladi.

## **II BOB. MA’NAVIY YUKSALISH JARAYONIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLARI**

### **2.1. YOshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy targ‘ibotning ahamiyati**

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarning so‘zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so‘zsiz bajarilishi huquqshunoslarimizning o‘z vazifasiga munosabati va zimmasidagi ma’suliyatni his qilishga bog‘liqdir.

O‘zbekistonning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifasi, bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtiiish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lida og‘ishmay, izchil va qat’iyat bilan borishdir. O‘zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” (2016 yil 14 dekarb) nutqida ta’kidlaganidek, “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!” degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarimiz tashkil etadi.<sup>1</sup>

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir vaqtda yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan muhim masalalardan biridir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini qurish, “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” kontseptsiyasini amalga oshirish siyosiy strategiyaning ma’naviy mazmuni qobiliyatli yangi avlod

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз // “Халқ сўзи”, 2016 йил 15 декабрь.

kadrlarini tayyorlash tizimi bilan o‘zaro bog‘liq ekanligiga alohida e’tibor berilmoqda.

YOshlik axloqiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Hayotga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati ijtimoiy foydali bo‘lishgina emas, balki bu faoliyat o‘z shaxsiy maqsadlariga, intilishlariga muvofiqligi, hayotiy rejalarshirishning amalga oshishiga mumkin qadar to‘laroq ko‘maklashishi ham g‘oyat muhimdir. CHunki bugungi kunda mamlakatimizda yoshlар jami aholimizning 64 foizini tashkil etadi.<sup>1</sup> Ta’lim-tarbiya va professional tayyorgarlik darajasi kelajagimizni, demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal etadigan kuch yoshlardir. YOshlar jamiyatimiz hayotida hal qiluvchi, kuch, tayanch va suyanch bo‘lishiga qodir bo‘lgan layoqatli, mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo‘yicha belgilab olgan yuksak maqsadlarimizni bevosita amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” (2016) gi Qonunda ta’kidlaganidek, yoshlarning ma’naviy, intelektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlар uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xattixarakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish <sup>2</sup>kabi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari qayd etilgan. Darhaqiqat “yangi avlodni tarbiyalash – xalqni tarbiyalash deganidir”.

Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, ma’naviy tarbiya – yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy etuklik kabi sifatlarini

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Конуни // “Халқ сўзи” 2016 йил 15 сентябрь.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Она юртимиз баҳту икболи ва буюк келжаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2015 235-бет.

shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, mamlakat masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat’iyat va mas’uliyat yo‘qotilsa, bu o‘ta muhim ish o‘z holiga, o‘zibularchilikka tashlab qo‘yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo‘g‘irlgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma’naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishi mumkin. O‘zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma’naviy olamni yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o‘lmas merosni chuqur o‘rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho‘qqillarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. CHunki, ertaga o‘rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga etgan taqdirdagina komil insonlar bo‘lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, engilmas ma’naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar ma’naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o‘tadi.

Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoev yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalar haqida fikr yuritib, shunday degan edi: “SHu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi –

yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir<sup>1</sup>”

Bugun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kechayotgan o‘zgarishlar va yangilanishlar, xususan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning mavjud kamchilik va muammolarning oqilona echimini topib, insonparvarlik,adolat tamoyillari ustuvorligini ta’minalash, erkin fuqorolik

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. //”Халқ сўзи”, 2016 йил 15 декабрь

jamiyatini ravnoq toptirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur Strategiyada o'sib kelayotgan avlodni jismoniy sog'lom, ruhan hamda intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilibtarobiyalash va navqiron avlod vakillari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya hamda sportga keng jalb etish yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirshning muhim mezoni sifatida belgilangan.

Prezident SHavkat Mirziyoev 2017 yil 5 yanvarda sog'liqni saqlashg sohasining bir guruh etakchi mutaxassislari bilan uchrashuvda “Farzandlari sog'lom yurtning kelajagi buyukdir” muvzuidagi tardibrda mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasini yanada rivojlanadirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, yosh mutaxassislarni tarbiyalash jarayoniga ilg'or ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, dunyoning etakchi tibbiyot markazlari va o'quv muassasalari, taniqli olimlar va mutaxassisalar bilan hamkorlikni kengaytirish va boshqa dolzarb masalalar yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda respublikamizda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy demokratik davlatning eng muhim belgilari bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash – bu islohotlarning o'zagini tashkil etmoqda.

Huquqiy ong — kishilarning huquqqa, qonunga odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi, u hurmatda bo'lish yoki huquqni mensimaslikka ta'sir qiladi. Kishilarning huquqiy ongi qanchalik kuchli bo'lsa, bu huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi.

Huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat shakllanadi. YOshlarni jamiyat talablariga, davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarga chuqrur hurmat-ehtiromli bo'lishga o'rgatish huquqiy

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Фарзандлари соғлом юртнинг келажаги буюқдир //”Халқ сўзи”, 2017 йил 6 январь

ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Darhaqiqat, huquq asoslarini, konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me’yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o‘z ahamiyatiga ko‘ra huquqiy ta’lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi.

SHu maqsadda respublikamiz huquqshunos olimlari, huquqni muhofaza qiluvchi idora vakillari, adliya idoralari hamda qator huquqshunos talabalar tomonidan keyingi yillarda fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirishga qaratilgan qator huquqiy targ‘ibot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Umuman olganda huquqiy targ‘ibot masalasi bugungi kunda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakillantirishning asosiy omili hisoblanadi.

**Huquqiy targ‘ibot** – “jamiyat va davlatning huquqiy siyosatini, strategik maqsadini kishilarga, ommaga etkazishga qaratilgan ma’rifiy va targ‘ibiy usullar. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi huquqiy targ‘ibot ta’sirchanligi va xalqqa tushunarli ekaniga bog‘liq. SHuning uchun, huquqiy targ‘ibot huquqiy jamiyat nazariyasi, huquq loyihasi, huquq sotsiologiyasi kabi ilm sohalarining natijalariga tayanadi”<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti 1997 yil 25 iyun oyida “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi PF-1791-sonli Farmoni e’lon qilindi.

Ushbu Farmonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiyadolat qaror topishini ta’minalash, ma’naviy va madaniy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy bilimini yuksaltirish, jamiyat a’zolarining siyosiy faolligini oshirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Тошкент: Адолат, 2009. 654-б.

tizimini takomillashtirish va jamoatchilik fikrini o‘rganish borasidagi ishlarni yaxshilash maqsadida, quyidagilar belgilandi:

Aholining huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar – davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Respublikada huquqiy davlat qurilishi yo‘lida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar va bu borada qabul qilingan qonunlar mohiyatini aholi tomonidan chuqur anglab etishiga har tomonlama ko‘maklashish – davlat boshqaruv, huquqni muhofaza qilish idoralari, o‘quv yurtlari hamda huquqshunos olimlarning eng dolzarb vazifalari ekanligi ko‘rsatildi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma’naviy o‘zgartirish sohasida keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazilmokda. O‘tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamini yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmokda va takomillashtirilmokda.

Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvoffaqiyati ko‘p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog‘likdir. SHaxsnинг siyosiy faolligi, uning chinakam fuqaroviylar munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir.

YUksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jiplashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yahlitligi hamda batartibligini ta’minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat – umumiyligi madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilimlarga ega

bo‘lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin.

Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy ongini huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmokda. Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, huquqiy e’tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatlari hal etilishini ta’minlaydi.

Mamlakatimizda madaniyat va sport sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati xalqimizning ulkan intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, barqaror rivojlangan, jismonan baquvvat va man’an etuk shaxslar jamiyatini barpo etish, aholining o‘sib borayotgan ma’naviy va estetik ehtiyojlarini ta’minalash, madaniyat va sport muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda 39 teatr, 175 muzey, mingdan ziyod aholi dam olish va madaniyat markazlari, istirohat bog‘lari, 301 bolalar musiqa va san’at maktabi, 296 bolalar va o’smirlar hamda respublika darajasidagi sport maktabi 51 mingga yaqin sport majmuasi, stadionlar va inshootlar faoliyat ko‘rsatmoqda, 2,7 milliondan ortiq bolv sport, musiqa va san’at bilan muntazam shug‘ullanmoqda. Madaniyat va san’at, sport va jismoniy tarbiya sohasida 69 ming xodim mehnat qilmoqda.<sup>1</sup>

Biroq shiddatli zamon talabalari ortib borayotganini inobatga olsak, shu natijalar bilan kifoyalanib qolish mumkin emas. Aholi keng qatlami o‘rtasida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishni ommalashtirish ishlarini kuchaytirish, sport inshootlaridagi shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, bolalar, ayniqsa, qizlarni sportga oshno etish hamda shu orqali ular salomatligini mustahkamlash, iqtidorli va istiqbolli sportchilar bilan ishlashni takomillashtirish, mazkur sohada malakali kadrlarni tayyorlash, davlatlararo hamda xalqaro aloqalarni kengaytirish zarur.

---

<sup>1</sup>Низомхўжаев З. Соғлом авлод – давлат ва жамият таянчи. //”Халқ сўзи”, 2017 йил 18 февраль.

Ushbu dolzarb vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha, birinchi navbatda, sport sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini keskin oshirishni taqazo etadi.

Prezident SHavkat Mirziyoev Asosiy qomusimiz qabul qilinganining 24 yiliga bag'ishlangan ma'rzasida ta'kidlaganidek, "Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-umidlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor, uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda".<sup>1</sup>

"Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili" dasturidan yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallaydi.

Bu borada davlatimiz tomonidan yoshlarimiz uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlari barpo etilib, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlangan ishlar yangi, yuksak bosqichga ko'tarilmoqda. YOsh avlod tarbiyasi haqida gap ketganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim, deydi davlatimiz rahbari SH. Mirzyoev. "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, dvlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib horlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli baloqazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш –юрг тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // "Халқ сўзи", 2016 йил 8 декабрь.

YOsh avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashda sport muhim o‘rin tutadi. “Bugungi kunda O‘zbekistonda 2 millionga yaqin farzandlarimiz, shu jumladan, 840 mingdan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug‘ullanmoqda”<sup>1</sup>.

2005 yilda yurtimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning 30 foizi, jumladan, qishloq joylarda 29 foiz sport bilan shug‘ullangan bo‘lsa, 2015 yilda bu rahqamlar tegishli ravishda 57,2 foiz va 56 foizni tashkil etgani qayd etildi. Bunday misollar mamlakatimiz bu borada katta o‘sish va o‘zgarishga erishganidan yaqqol dalolat beradi.

Bugungi yoshlar biz uchun mutlaqo yangi bo‘lgan badiiy gimnastika, suzish, sinxron suzish, tennis, taekvando, dyuzdo, karate, vaterpol, eshkak eshish kabi sport turlari bo‘yicha muntazam shug‘ullanib, qit’a vajahon miqyosidagi nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, yuqori shohsupalarga ko‘tarilayotgani har qanday odamni hayratda qoldiradi.

Iste’dodli o‘g‘il-qizlarimiz xalqaro maydonlarda qo‘lga kiritayotgan katta g‘alabalari bilan O‘zbekiston yoshlarining hech kimdan kam emasligini takror va takror namoyon qilmoqda.

SHu bilan birga, madaniyat va sport sohasida davlat boshqaruvi samaradorligining tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mutasaddi organ sifatida o‘z oldiga qo‘ylgan keng ko‘lamli masalalarning to‘liq ijrosi ta’minlanmagan, ayniqsa, davlat boshqaruvi va joylardagi ijro hokimiyyati organlari faoliyatini mazkur sohada muvofiqlashtirish, madaniy-ma’rifat va sport-sog‘lomlashtirish muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha ishlar etarli darajada olib borilmagan.

Bundan tashqari, hayotiy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bitta vazirlikda madaniyat va sport kabi ikkita ko‘p qirrali va murakkab sohalarning birlashtirilishi

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш - энг олий саодатдир. Т.: “Ўзбекистон”, 2015. – 238-бет.

ommaviy jismoniy tarbiyani rivojlantirish, istiqbolli sportchilarni saralash tizimini takomillashtirish, hududlarda teatr, mumtoz musiqa va boshqa san'at turlarini keng ommalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yuksaltirish imkonini bermayapti.

Natijada madaniyat va sport ishlari vazirligi o'z ish faoliyatida ko'p hollarda barcha mavjud resurs va imkoniyatlarini bayramlar madaniy tadbirlarini o'tkazishga va muhim xalqaro sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirish bilan chegaralanibqolgan. YUzga kelgan salbiy holatlarni bartaraf etish uchun vazirlik faoliyatini tubdan isloq qilish zarurati paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruvin tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni madaniyat va sport sohasida boshqaruvin tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini keskin oshirish, O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholi keng qatlami o'rtasida ma'nan va axloqan komil inson bo'lishga va sog'lom turmush tarzini yurtishga intilishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.<sup>1</sup>

"Inson huquqlari va uni himoya qilish masalalarini hal qilishda davlatlar mazkur hujjatda e'lon qilingan huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ularda ishlab chiqilayotgan huquqiy hujjatlarning samarali va adolatli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi"<sup>2</sup>.

Yurtboshimizning ta'kidlaganidek, bugun kollejlar, litseylar, institutlarni bitirayotgan, qolaversa chet mamlakatlarida o'qib kelayotgan bizning yoshlarimiz hech kimdan kam emas va kam bo'lmaydi ham. Mamlakatimizda o'rta sinfni mustahkam ushlab, kelajakda ushbu sinfni O'zbekistonda hukmdor bo'lishini ta'minlamoq, qishloq joylaridagi yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 февраладаги "Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // "Халқ сўзи", 2017 йил 17 февраль

<sup>2</sup> "Инсон хукуклари Умумжахон Декларацияси". –, 1948 йил. –Б.70-71.

jalb etish maqsadida etarli sharoit va imtiyozlar yaratilgan va yaratilmogda. Albatta, bu imkoniyatlar O‘zbekiston yoshlarining huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va ma’naviy olamini yuksaltirish, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat bilan yondashishlari har tomonlama etuk, qobiliyatli yoshlarimizni tarbiyalashda muhim omil bo‘lmoqda.

Bugun davlatimiz rahbari katta-katta minbarlardan “...mening ortimda O‘zbekiston yoshlari turibdi” – deya, mamlakatimizning o‘sib kelayotgan yosh avlodlariga yuksak ishonch bildirayotganligi Yuqoridagi fikrimizning yorqin misolidir. O‘ylaymizki, bunday ishonchga javoban barcha yoshlarimiz ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lida tinmay o‘qib-o‘rganishi, yurtimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishda fidokorona mehnat qilishi hamda yurtboshimizning bizlarga bildirgan har qanday da’vatlariga “labbay” deya javob berishlari darkor.

## **2.2 Ma’naviy, axloqiy bilimlar berish asosida yoshlarni tarbiyalashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish yo‘llari**

Ma’lumki, O‘zbekiston haqli ravishda “yoshlar mamlakati”, deb atashadi. Bu bejiz emas. CHunki bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig‘i aynan yosh yigit-qizlardir. YOshlar bunyodkorlik salohiyatiga ega bebahoh resurs, mamlakat kelajagining negizini tashkil etuvchi ulkan kuchdir. Ammo mazkur salmoqli qatlam yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta qudratga aylanishi uchun dastavval ularni ijtimoiy, ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, o‘z huquq hamda majburiyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi, jamiyatda munosib o‘rnini topishga qulay sharoit yaratish kerak.

**YOshlarga oid davlat siyosati-** davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar

yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi bo‘lib, asosan 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslardir.

O‘tgan mustaqillik yillarida yoshlarga oid davlat siyosatining bevosita qonuniy jihatlarini quyidagi huquqiy asoslar bilan izohlash mumkin.

1. 1991 yil 20 noyabrida “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun bosh islo Hatchchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir asosiy strategik yo‘nalishlardagi faoliyatini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirishga imkoniyat yaratib berdi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr)da barcha fuqarolar qatori yoshlar huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashning huquqiy va me’yoriy jihatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Jumladan, 41- moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiylar ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi va hokazo.”

3. O‘zbekiston Birinchi Prezidentining 2014 yil 6 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘sishimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori ijrosi ta‘minlanib kelindi.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14sentabrdagi “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda boshqa huquq va manfaatlarini har tononlama himoya qilish, bandligini ta‘minlash, ular uchun ochiq va sifatli ta’limni kafolatlash, yosh avlodni qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari aniq va puhta o‘z ifodasini topgan. Qonun 4 bob, 33 moddadan iborat.

Ma’naviy-ma’rifiy sohada oldimizda turgan eng muhim va dolzarb vazifamiz-yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar

mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga tayanamiz.

Bugungi kunda yon atrofimizda diniy ekstrimizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli baloqazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosи va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi

Haqiqtan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbliги va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. SHu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda<sup>1</sup>. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning xayyotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikalisharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, maxalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga qulok solish,dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko‘mak bereshimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy xarakati barcha yoshlar intiladigan, ularning qobiliyati va ihtidorini ro‘yobga chiqaradigan tashkilotga aylanishi zarur deb hisoblaymiz.

Prezident SHavkat Mirziyoev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlab o‘tkanidek, beshinchi vazifa – kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni hal qilishdir. Bu o‘rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиётини ва халқ фаровонлигини гарови// “Халқ сўзи” 2016 йил 8 декабр.

boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini etkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish xaqida bormoqda. Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa, internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketkanini inobatga olish zarur.

SHu o‘rinda xammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibti<sup>1</sup>. Alisher Navoi nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasiga bir kunda keladigan 200-250 nafar kitobxonlardan 80-85 nafari yoshlar bo‘lib, shundan 50 foizi o‘quvchi dramatik asarlarni, 40 foizi detektiv janrdagi adabiyotlarni, 10 foizi esa turli janrlardagi adabiyotlarin so‘rab murojaat qilishganligi aniqlandi<sup>2</sup>. O‘tkazilgan so‘rovnoma va kuzatish xulosalariga ko‘ra, bugungi kunda yoshlarimiz badiiy adabiyotni o‘qishmoqda, kimdir bir asarni qayta-qayta o‘qib ham xar gal o‘zgacha ta’surot olsa, kimdir yangi asarlarni qidirib o‘qiyapti, kimdir kitoblarni elektron variantini topib mutola qilyapti.

O‘zbekiston Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kommissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishida ushbu muhim soha rivoji bilan bog‘liq aholi, husuan yoshlar o‘rtasida kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudoigi qayd etildi. Bunda:

- 1) aholi, ayniqsa yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyasini xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talabni o‘rganish
- 2) kitoblarni chop etish, aholini etkazib berishni o‘z ichiga olgan boshqaruva tizimini tanqidiy o‘rganish
- 3) noshrlar va adiblarni moliyaviy rag‘batlanitirish

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир раҳбар фаолиятини кундалик қоидаси бўлиши керак. //”Халқ сўзи”, 2017 йил 15 декабрь

<sup>2</sup> Норкулов Р. Бадий адабиёт... модадан қолдими //Шарқ зиёси, 2016 йил 15 декабрь.

- 4) kitob tarqatish tizimiin yanada rivojlantirish
- 5) ixtisoslashgan kitob do‘konlarini kengaytirish
- 6) o‘zaro hamkorlikni takomillishtirish
- 7) axborot kutubxona muassasalarida, ayniqsa ta’lim sohasidagi axborot-resurs markazlari fondini shakllantirish
- 8) OAVlari orqali targ‘ibqilish
- 9) Ta’lim muassasalarida sinfdan tashqari o‘qitishga e’tibor qaratish
- 10) YOzuvchi –shoirlar ishtirokida kitob bayramlari, yarmarkalari tashkil etish.

Umuman yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini orttirish maqsadida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ijobiy natijalar beradi deb o‘ylayman:

- YOshlarni bolalikdan kitob do‘konlariga sayohatga olib borish
- Oilada farzandlarning tug‘ilgan kunlarida kitoblar so‘vg‘a qilish
- Oilada farzandlarga ertaklar so‘zlab berish, kitobga qiziqishini orttirish
- Kitobxonlik kechalarini o‘tkazish
- YOzuvchi va shoirlar bilan uchrashuv kechalarini tashkil etish
- Ta’lim muassalarida badiiy adabiyotlar ko‘rgazmalarini tashkil etish
- “Insonning nutq madaniyatini rivojlantirishda badiiy adabiyotning ro‘li” mavzusida ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovin o‘tkazish
- “men sevgan badiiy qahramon” mavzusida insholar ko‘rik-tanlovin o‘tkazish
- O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borish.

Xususan bugungi kunda, ya’ni buyuk kelajakning poydevori ko‘rinayotgan bir pytda yoshlarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va ma’navitini o‘stirish va boyitish asosiy vazifalardan biriga aylandi. Bu bilimlarning samara berishi esa ularni hayotga qanchalik to‘g‘ri tadbiq eta bilishga bog‘liqdir. SHuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Perizedenti Islom Karimov “Mustaqil O‘zbekistonda yoshlar tutgan o‘rnini aloxida ta’kidlab xar bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni

singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishishi o‘zlariga bog‘liq ekanligini anglab etishlari kerak”<sup>1</sup> - degan edilar.

Fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va ma’naviyatini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularning huquqiy savodxonlik jihatdan etuk barkamol avlod bo‘lib tarbiyalash barobarida 2009 yil Adliya vazirligi huzurida “YOshlarga-yoshlarcha” huquqni targ‘ib qilish, uni tushuntirish maqsadida yosh huquqshunoslardan iborat “Huquqiy targ‘ibot guruhi” tashkil etildi.

Targ‘ibot guruhi mamlakatimizning olis hududlarida joylashgan huquq faniga ixtisoslashtirilmagan maktab, kollej hamda akademik litsey o‘quvchilarini huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini yuksaltirishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

YUqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, yoshlarimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, barkamol avlod va yoshlarimizni huquqiy bilimlarini mustahkamlash borasida quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

*Birinchidan*, “yoshlarga-yoshlarcha munosabat” shiori ostida huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari talabari ishtirokida maktab, kollej hamda oliy ta’lim muassasalarida targ‘ibot tashviqot ishlarni zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llagan holda uning izchilligini tashkil etish;

*Ikkinchidan*, maktab, kollej hamda akademik litseylarda doimiy “Adliya soatlari”ni tashkil etish va mazkur soatlarda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib borish;

---

<sup>1</sup> И.А. Каримов Ўзбекистон милий итиқол ва тараккиёт йўли Т. 1996 - йил Т 1 175 бет

*Uchinchidan*, huquq faniga ixtisoslashmagan o‘rta ta’lim muassasalarida huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonlikni oshiruvchi ko‘rik tanlovlarni tashkil etish.

Jamiyatni modernizatsiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va ma’naviyatini yanada oshirish muammolaridan biri sifatida oila va jamoatchilikni o‘rni tahlil qilindi va bu borada oilada huquq va huquqbazarlikka bo‘lgan munosabat yoshlarning xuddi shu munosabatini ham hisobga olish darkor. YOshlarda huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni oshirishda ko‘rilayotgan muammolar sirasiga ommaviy axborot vositalarini bu borada olib borayotgan ishlarida huquqiy axborotlar, targ‘ibot va tashviqot zerikarli, bir tomonlama yoki faqat faktlari bilan chegaralanib qolganida ko‘rishimiz mumkin.

YOshlardagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish muammosi bilan bиргаликда, уларни касб-хунар танлашда ахборот тақчиллиги, мактаб битирувчилари касб-хунар танлашда педагоглар, психологлар ва ота-оналар юрдамига muxtoj. SHu bilan bиргаликда yoshlarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi deb uylayman. Buning o‘ziga xos sabablari mavjud. YOshlarimizda iqtisodiy madaniyatning uyg‘un rivojlanishi: moddiy va madaniy madaniyat, ijtimoiy va shaxsiy manfaat, ichki ma’naviy dunyo va tashqi qiyofa, so‘z va ish birligi, tadbirkorlar o‘rtasidagi ishonch shuningdek iqtisodiy, siyosiy, ahloqiy, huquqiy, badiiy, diniy faoliyat turlari va ong shakllari hamohangligi va yahlit taraqqiy etishi milliy g‘oyalar asosida amalga oshiriladi. “Moddiy va madaniy ne’matlarning hammasi bиргаликда uyg‘unlashgan chog‘idagina, haqiqiy baxt saodatga erishish mumkin”<sup>1</sup> – degan edi Abu Nosr Farobiy

Sog‘lom dunyoqarash, mas’uliyat, iymon va e’tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy ob’ektiv shart-sharoitlari va omillarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

---

<sup>1</sup> Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Т: “Мерос”. 1993 йил

**a) ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy muhit.** YOshlarda sog‘lom e’tiqod va yuksak dunyoqarashning shakllanishi uchun ma’lum muxit ham zarur. O‘zbekistonda bu borada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni xolis va chuqur o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini yod etish, boy ilmiy – adabiy merosini o‘rganish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, milliy siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirilgandi. Ijtimoiy va siyosiy institutlar – davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi jamg‘armalarning tashkil etilishi o‘ziga xos ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning buyuk kelajak bunyodkori bo‘lib voyaga etishda muhim o‘rin tutmoqda.

**b) sog‘lom g‘oyalar.** O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan, xalq tomonidan e’tirof etilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda shunday faol kuchga aylanganki, ular yoshlarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlariga to‘la javob beradi. Zero, Vatanning ravnaqi, yurtning tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, komil inson tarbiyasi uchun yaratilgan sharoitlar, aynan kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning manfaati uchun xizmat qiladi.

**v) siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o‘sishida siyosiy partiyalarning o‘rni va ahamiyati katta.** Ular o‘z faoliyati bilan fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g‘oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistondagi har bir partiya o‘z dasturiy maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Fuqarolar uchun qaysi siyosiy partianing qarashlariga qo‘silishi yoki qo‘silmaligi ixtiyoriy bo‘lib, bunday erkinlik yoshlarning to‘g‘ri fikrlashiga, mustaqil yo‘l tanlashiga xizmat qiladi. Har bir partianing o‘z dasturiy g‘oyalarini hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyilliriga amal qilishi hayotning bosh mezonidir.

CHunki xalq manfaatlari, istiqlol g‘oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat’iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir.

Fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish chinakam demokratik fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, shaxsning yuksak bilimi etarli bo‘lishi mumkun, ammo unda huquqiy ong va huquqiy madaniyat etishmasligi, u fuqaro sifatida xalqi va Vatani oldida burch va mas’uliyatini teran anglamasligi mumkin. SHuning uchun ham fuqarolar, ayniqsa yoshlarda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish mafkuraviy tarbiyaning muxim shartidir.

**SHu o‘rinda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish omillari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:**

- huquqiy ong va huquqiy madaniyatga oid ommabop adabiyotlar;
- ta’lim muassasalarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatga oid maxsus o‘quv kurslari;
- ijtimoiy muloqotlik huquqiy tamoyillari mavzuiga oid tadbirlar;
- mustaqillikning inson manfaatlariga qaratilgan huquqiy asoslarini keng xalq ommasi orasida targ‘ib etish va boshqalar.

**g) yoshlarning bilim darajasi.** Ilg‘or g‘oyalarni amalga oshirishning yana bir muhim sharti ularni o‘zlashtirish lozim bo‘lgan ijtimoiy qatlam yoki guruxning bilim saviyasi ma’lumotlik darajasidir. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun yoshlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan tarixiy xujjatlardir, ular har bir yoshning bilim darajasini oshirishga, dunyoqarashining kengaytirishga xizmat qiladi.

**d) odatiy, an’anaviy fikrlash tarzida yangicha, ilg‘or fikrlashga o‘tish** mafkuraviy yangilanishlar jarayonning muhim xususiyatidir. Ta’kidlash lozimki, inson o‘zi uchun odatiy bo‘lib qolgan fikrlash tarzidan osonlikcha voz kecholmaydi, chunki eskicha fikrlash bir qarashda qulay bo‘lib ko‘rinadi. Lekin yangi davr, yangicha islohotlar, demokratiya, bozor munosabatlari aynan tafakkur va fikrdagi o‘zgarishlarni taqozo etadi va bu rivojlanishning, taraqqiyotning asosiy

shartidir. SHuning uchun milliy istiqlol g‘oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarining keng omma qalbi va ongiga singishi birdaniga, tez va bir tekisda ro‘y bermaydi. Bu –murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo‘lib, bu jarayonda, boshqa ijtimoiy qatlam vakillaridan farqli o‘laroq yoshlar tashabbuskorlik ko‘rsatishi va o‘z dunyoqarashi, e’tiqodi bilan boshqalarga ta’sir ko‘rsatishi kerak.

**Muloqot madaniyati** – insonga xos ma’naviy ehtiyoj bo‘lib, undagi umumiylar madaniy saviyaning muhim ko‘rsatgichidir. Inson o‘zining his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalari, o‘y-fikrlarini bevosita muloqot jarayonida namoyon qiladi. ma’naviy va mafkuraviy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridn biri ham muloqot hisoblanadi. CHunki inson qalbida, ongida shakllanadigan dunyoqarash, e’tiqod, iymon, vijdon, mas’uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televedenie, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o‘rnini e’tirof etgan holda, shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko‘ziga qarab turib aytildigan ba’mani so‘z va hissiyotlarning o‘rni beqiyos. SHuning uchun ham ota-onada bir gapni aytish lozim bo‘lsa, bolasining yuzini o‘ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko‘zidagi samimiyat bilan fikrini uqtira boshlaydi. Va bunday muloqot samarali bo‘ladi. SHu bois auditoriyalarda o‘qituvchi bilan o‘quvchi, talaba va domla o‘rtasidagi muloqotga ta’lim va tarbiya jarayonida katta ahamiyat beriladi.

Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim hamda moddiy, ma’naviy, axloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanib va rivojlanib boradi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat fuqarolarning etukligi va ongliligini ko‘rsatuvchi me’yordir. Huquqiy bilimlarga ega bo‘lgan va ularni amaliyotda tadbiq eta oladigan kishi huquqiy bilimli va madaniyatli hisoblanadi.

Huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy bilimlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi dinamik jarayondir. Har qanday bilim va ma’rifat singari huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy bilim ham jamiyat taraqqiyotiga mos paydo bo‘lgan talab va ehtiyojlar, mavjud shart-sharoit va imkoniyatlar asosida yuzaga

keladi va rivojlanadi. Bolalarning qalbi va vujudiga go‘daklik paytidan boshlab odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar haqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishda oilaning roli va ahamiyati katta. SHuning uchun SHarqda qadim-qadimdan oila muqaddas sanalgan. «Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng qimmatli an’analar: halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo oilada shakllanadi», — deydi Birinchi Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag‘ishlangan tabrik so‘zida.

Bolalarda huquqiy tasavvur va tushunchalar asosini ilk bor ildiz ota boshlashida, farzandlar qalbini mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar etishda odamiylik, halollik, oljanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar kamolotida ota-onaning, oilaning o‘rni beqiyos.

Huquqiy bilimga ega bo‘lish, huquqiy jihatdan tarbiyalanganlik, huquqiy madaniyat, ma’rifat va ma’naviyat sohibi bo‘lish, qonunlarni muqaddas hisoblab, ularga shak keltirmasdan faoliyat ko‘rsatishga odatlantirish — O‘zbekiston har bir fuqarosining qalbiga chuqur singib ketgan, mohiyatiga aylangan bo‘lishi lozim.

Oilada ota-onsa, qaynona-kelin, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori, ularning maqsadga muvofiqligi, munosabatlardagi samimiyat darajasi ham yoshlarda sog‘lom fikrning, sharm-hayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, mas’uliyat kabi ijobiy fazilatlar va intelektual sifatlarning namoyon bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Xalqimizga xos ustivor fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindoshlarning bevosita aralashuvida yuz beradi. Bu hol mehnatga to‘g‘ri munosabat, halollik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e’zozlash, ayash, urf-odatlarni muqaddas bilish jarayonida amalga oshadi. Bunday sifatlarni o‘zlashtira olgan har bir o‘g‘il va qizda oilaparvarlik va yurtparvarlik xususiyatlari rivojlanishi muqarrar. Bu esa jamiyatimizda yosh avlodni huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va ma’nivitini shakllanishida ilk poydevor vazifasini o‘taydi

## XULOSA

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonida fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish nafaqat ijtimoiy zaruriyat, balki jamiyat demokratik taraqqiyotining muhim shartidir. Islohotlarning bugungi bosqichida jamiyat huquqiy ongi va madaniyatini, ayniqsa inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish, bu boradagi huquqiy tarbiya ishlarini amalga oshirishda zamonaviy usul va vositalardan foydalanish masalalarini tadqiq etish bitiruv malaaviy ishi oldida turgan vazifalardan hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar tayyorlandi.

**1.** Ma’lumki, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi” 1997 yilda qabul qilingan. O‘tgan davr maboynda dasturda belgilangan ko‘pgina vazifalar o‘z echimini topdi. SHu bilan birga bugungi kun voqeligi, kishilarning siyosiy-huquqiy faolligi, dunyo qarashi o‘zgarganligi, zamonaviy axborot tarqatish tizimlarining rivojlanganligi hamda fuqarolarning huquqiy axborotga bo‘lgan ehtiyojlari o‘sganligi bois ushbu dasturni yangi tahrirda qabul qilish fursati etdi, deb o‘ylaymiz. SHuningdek aholiga huquqiy axborotni etkazishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

**2.** Ta’lim muassasalarida “Inson huquqlari madaniyati” o‘quv kursini joriy etish lozim. Ushbu o‘quv kursining joriy etilishi shaxsning o‘z huquq va burchlarini bilishi bilan birga ularni amaliyotda qo‘llay olish, qonunga itoatkorlik xissini shakllantirishga hizmat qilgan bo‘lar edi.

**3.** Huquqiy ta’lim jarayonida yoshlar huquq normalarini idrok etishining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish. Bunda ta’limning har bir bosqichida o‘quvchining yoshi, voqelikni idrok etish qobiliyati va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ular duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda huquqiy masalalarni hal etishning aniq misollari bilan etkazib berish samara berishi mumkin.

**4.** Aholining ish faoliyati davlat va nodavlat tashkilotlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lмаган hamda ta’lim bilan qamrab olinmagan qismining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda zamonaviy axborot vositalari, jumladan, internet va uyali aloqa tizimlari imkoniyatidan keng foydalanish zarurligini inobatga olgan holda, huquqiy yo‘nalishdagi saytlar soni va sifatini oshirish, ularning foydalanish uchun qulayligi masalalari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, inson huquq va manfaatlari, uning majburiyatlarini aks ettiruvchi ma’lumotlar, qonunchilikdagi yangiliklarning uyali aloqa kompaniyalari tomonidan qisqa SMS xabarlar tarzida yuborish tizimini joriy etish ancha samara beradi, deb o‘ylaymiz.

**5.** Qonun hujjatlarini rasmiy manbalarga asoslangan holda, aholiga sodda va tushunarli usullarda etkazish, ularning bir xilda qo‘llanilishini ta’minalash maqsadida huquqshunos olimlar bilan tahririyatlar va nashriyotlarning o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yib, amaldagi barcha qonun hujjatlariga sharhlar yaratish va chop ettirib borish zarur. Bundan tashqari, soliq, bojxona, bank, moliya, OAV, mehnat, ijtimoiy ta’minot sohalariga doir savol-javoblarni o‘z ichiga olgan “Aholi uchun yuridik ma’lumotnoma” ruknida nashr etiladigan to‘plamlarni ko‘paytirish zarur. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”da huquqiy adabiyotlarni arzonlashtirilgan narxlarda sotish belgilangan. SHu bois, huquqiy adabiyotlarni yanada arzon narxda sotish ishini davlat nazoratiga olinishi va bog‘cha (rasmli), maktab, litsey, kollej o‘quvchilari va kam ta’minlangan oilalarga ularni bepul taqdim etish maqsadga muvofiq.

**6.** Fuqarolik pasportini ilk marta olayotganlarga O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini berish, nikohdan o‘tayotganlarga Oila kodeksini, mehnat munosabatlariiga kirishayotganlarga Mehnat kodeksini taqdim etish kabi amaliyotni joriy etish zarur.

**7.** Rahbar xodimlar ishga tayinlanayotganda ularning huquqiy savodxonlik darajasini ham sinovdan o‘tkazish, shuningdek, yil davomida “Eng huquqiy

savodxon oila”, “Eng qonunga itoatkor mahalla”, “Eng qonunga itoatkor jamoa” nomli tanlovlarni o‘tkazib borish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish bosh maqsadimiz ekan, huquqiy savodxonlikning mukammal zamonaviy tizimini yaratish birinchi darajali vazifalarimizdan biri bo‘lmog‘i lozim. Darhaqiqat ushbu tadbirlar pirovard natijada, jamoat tartibi va intizomini mustahkamlashga, milliy huquqiy davlatchilikni, yuqori darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shubhasiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

- 1.** Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 226 б.
- 2.** Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 346 б.
- 3.** Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарортараққиётйўлида. Т.6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 26.
- 4.** Каримов И.А. Инсон, унинг хукуқ ва эркинликлари ҳамда манаатлари – энг олий қадрият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 321 б.
- 5.** Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас қуч. – Т., 2008. – 176 б.
- 6.** Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 28 январь.
- 7.** Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
- 8.** Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 326 б.
- 9.** Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация қилишга қаратилган тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириш – бош мақсадимиздир. // Халқ сўзи. 2014 йил, 6 декабрь.
- 10.** Каримов И.А. 2015 йилда Иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл

очиб бериш – устувор вазифамиздир. // Халқ сўзи, 2015 йил 17 январь.

**11.** Каримов И.А. Она-юртимиз баҳту-иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 304 б.

**12.** Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиға киришиш тантанали маросимиға бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. - 56 б.

**13.** Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини тъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъruzаси / <http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-taminlash-yurt-tara--07-12-2016>.

**14.** Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.-104 б.

**15.** Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқдмиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.-491 б.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

**1.** Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 76 б.

**2.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини тъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя

қилишга ва ишбилармонлик мухитини сифат жиҳатдан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2016 йил 5 октябрдаги ПФ-4848-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 40 (748)-сон, 467-модда;

**3.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг Интеллектуал мулк агентлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2016 йил 20 октябрда ПҚ-2637-сонли қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 45-сон, 520-модда;

**4.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда;

**5.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” 2017 йил 14 февралдаги Ф-4849-сонли Фармойиши. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 7-сон, 88-модда;

**6.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21 октябрдаги “Суд-ҳуқук тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқук ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4850-сон Фармони // “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”. – 2016 й. № 43, 497-модда.

**7.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси суд тизими тузилмасини тубдан такомиллаштириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4966-сон Фармони // “Халқ сўзи» газетасининг 2017 йил 22 февралдаги 38 (6732)-сони.

- 8.** Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги 2016 йил 14 сентябрь ЎРҚ-406-сон
- 9.** “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрь Қонуни.
- 10.** Олий таълим. Меъёрий-хуқуқий ҳужжатлар тўплами: – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2013. – Б. 6-32.
11. Жамиятда хуқуқий маданиятни юксалтириш Миллий дастури. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1997 йил, 9-сон, 227-модда.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 28 июндаги ПҚ-1990-сон “Юридик кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 29-сон, 372-модда.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги ПФ-4732-сон “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 24-сон, 312-модда.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 4 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганишни ташкил этиш тўғрисида”ги Фармойиши // “Халқ сўзи” газетаси. 2001. –5 январь.
15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 20 августдаги 242-сон “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.

### **III. O‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar**

- 13.** Абзалов Э.М. Проблемы формирование правовой культуры молодёжи: Автореф. дис... . канд.юрид. наук. –Ташкент, 2000. –22 с.

- 14.** Абдукадиров А.А., Астанова Ф.А., Абдукадирова Ф.А. “Case-study” услуби: назария, амалиёт ва тажриба. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2012. – Б. 4-5.
- 15.** Азизхўжаев А.А. Мустақил Ўзбекистон Республикасида қонунийлик ва хуқуқий тартиботни мустаҳкамлаш муаммолари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1992. – №1. – Б. 29-35.
- 16.** Ачилова Г. Теоретические аспекты правового сознания. // Давлат ва хукуқ. – Тошкент, 2001.- №1-2. -С. 49-51.
- 17.** Вопленко Н.Н. Правосознание и правовая культура: Учебное пособие. – Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2000. –52 с.
- 18.** Гафаров З.М., Каримова О.А. Методика правового обучения. Учеб.пособие. – Ташкент: Ўқитувчи, 1996. – 232 с.
- 19.** Дмитриев Ю.А. Правосознание и правовая культура. / Теория государства и права. Под. ред. Пиголкина. –Москва: Юрайт-Издат, 2006. –С.547.
- 20.** James L. Gibson and Gregory A. Caldeira. The Legal Cultures of Europe //Law & Society Review, Vol. 30, No. 1 (1996), pp. 59. (<http://www.jstor.org/stable/3054034>).
- 21.** Исломов З.М. Давлат ва хукуқ назарияси. – Тошкент: “Адолат”, 2007. – 916 б.
- 22.** Каримова О.А. Ёшлар хуқуқий тарбиясининг асосий йўналишлари. – Тошкент: ТДПУ, 1999. – 21 б.
- 23.** Кудрявцев И. В. Хуқуқий онг, маданият, мафкура. // Қонун ҳимоясида. – Тошкент, 2004. – № 9. – Б. 18–19.
- 24.** Кудрявцев И.В. Проблемы формирования правовой идеологии Республики Узбекистан в условиях независимости. Автореф. дис... . канд. юрид. наук. –Ташкент, 2010. –24 с.
- 25.** Мадалиева З.Д. Проблемы формирования и повышения правосознания молодежи: Автореф. дис ... канд. юрид. наук. – Ташкент, 1991. – 21 с.

- 26.** Маматов Х. Ҳуқуқий маданият, унинг жамият ва давлат ҳаётидаги ўрни. – Т.: Yurist-media markazi, 2008. – 144 б.
- 27.** Матжанов И.А. Ҳуқуқий маданият ва огоҳлик/ XXI аср - интеллектуал авлод асри. Ёш олимлар ва талабаларнинг худудий илмий-амалий конференцияси материаллари. –Нукус, Қорақалпоқ давлат университети, 2015. –237 б.
- 28.** Насириддинова О.Т. Ҳуқуқий маданият – фуқаролик жамиятини шакллантиришда муҳим омил (ёшлар мисолида): Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: ТДЮИ, 2009. – 22 б.
- 29.** Одилқориев X. Фуқаровий жамиятнинг ҳуқуқий маданияти. // Аёл ва ҳуқуқий маданият: – Тошкент, 1999. – Б. 90-97.
- 30.** Покушалова Л.В. Метод Case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения студентов. // Ж. Молодой ученый, 2001. № 5-2. – С. 155-157.
- 31.** Сабиров Б. Конституциявий ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш – ҳуқуқий давлат қуришнинг муҳим омили. // ТДЮИ Ахборотномаси. – Тошкент, 2006.- № 2.-Б.13-16.
- 32.** Сабуров Н. Шахс сиёсий-ҳуқуқий фаоллиги – фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг муҳим омили. Монография. –Тошкент: ТДЮИ, 2009. – 131 б.
- 33.** Садыкова Ё.С. Ҳуқуқий онгни шакллантиришда демократик қадриятларнинг роли. Юрид.фан.номзоди... Автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.
- 34.** Сайдалиходжаева Н.Ф. Система правового воспитания учащихся старших классов (на основе субъект-субъектных отношений): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ, 2008. – 23 с.
- 35.** Сайдов А., Таджиханов У., Ҳуқуқий маданият назарияси. 2-жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. Т.1. – 316 б.

- 36.** Соколова Н.С Правосознание, правовая культура и правовое воспитание// Проблемы общей теории права и государства. –М.: 1999. – С. 406-407.
- 37.** Туйчиева Ҳ.Н. Шахс ҳуқуқий онгини шакллантиришда ҳуқуқий таълимнинг ўрни ва унинг илмий-амалий муаммолари. Юрид. фан. номз. илм. дар. олиш учун ёзил. дисс... – Тошкент, 2009. – Б. 3.
- 38.** Турдибаева Р.Э. Талаба ёшларда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш муаммолари: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: ТДЮИ, 2001. – 23 б.
- 39.** Туманов В. А. Правовой нигилизм в историко-идеологическом ракурсе // Государство и право. – М.: 1993. №8.- С.52.
- 40.** Юридический энциклопедический словарь. – Москва: ИНФРА-М, 1997. – С.240.
- 41.** Хамраев А.У. Правовая культура личности.: Автореф. дисс... канд.юрид.наук. – Ташкент, 1999. – 21 с.
- 42.** Ходжаева С. А. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан (историко-правовое исследование): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т.: Академия МВД РУз, 2004. – 23 с.
- 43.** Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгнинг ўрни. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 48 б.
- 44.** Хачатуров Р.И. Формирование правовой культуры в условиях становления гражданского общества в России: политico-правовое исследование. Автореф. дисс...канд. юрид. наук. – Казань, 2005. –28 с.

#### **IV. Entsiklopediya va lug‘atlar:**

1. Фалсафа: қисқача изоҳли луғат // масъул мухаррир А. Жалолов. – Т., 2004. – 287 б.
2. Ўзбекистон юридик энциклопедияси // Масъул мухаррир: Н.Тойчиев. – Тошкент: Адолат, 2009. – 213 б.

## **V. Elektron ta'lim resurslari**

1. www.lex.uz
2. www.edu.uz
3. www.gov.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.istedod.uz
6. www.tsul.uz
7. www.norma.uz